

**SINXRON TARJIMADA EKVIVALENTLIK MASALASI: INGLIZ,
FRANSUZ, O'ZBEK TILLARI RASMIY DISKURSI MISOLIDA**

Raufov Miraziz Mustafaqulovich – Sabon universiteti dotsenti vazifasini
bajaruvchi

Annotatsiya. Mazkur maqola sinxron tarjima jarayonida ekvivalentlik muammosini ingliz, fransuz va o'zbek tillari rasmiy diskursi misolida tadqiq etadi. Sinxron tarjima — bu nutqni real vaqtda idrok etish, kognitiv qayta ishlash va maqsad tilida adekvat tarzda qayta yaratishni talab qiladigan murakkab lingvistik faoliyat. Rasmiy diskursda – xususan, diplomatik nutqlar, xalqaro forum chiqishlari va davlat darajasidagi muloqotlarda – ekvivalentlikni ta'minlash nafaqat leksik, balki pragmatik, semantik va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ekvivalentlikning asosiy turlari – rasmiy, dinamik va funksional ekvivalentlik – nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning sinxron tarjima amaliyotidagi ko'rinishlari aniq misollar orqali ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sinxron tarjimon so'zma-so'z tarjimadan voz kechib, modulyatsiya, kompressiya, generalizatsiya, kontekstual muqobil tanlash va neologizm yaratish kabi transformatsiya strategiyalaridan foydalanish orqali ekvivalentlikni ta'minlaydi. Ingliz, fransuz va o'zbek tillari o'rtasidagi tizimiy farqlar – agglyutinativ va analitik qurilish, so'z tartibi, frazeologik me'yorlar – tarjimondan yuqori darajadagi lingvistik kompetensiya va tezkor strategik qaror qabul qilishni talab etadi.

Kalit so'zlar: sinxron tarjima; ekvivalentlik; rasmiy diskurs; lingvistik transformatsiya; dinamik ekvivalentlik; funksional ekvivalentlik; modulyatsiya; kompressiya; diplomatik nutq; ingliz-o'zbek tarjimasi; fransuz-o'zbek tarjimasi; pragmatik moslashuv; kognitiv yuk; kontekstual muqobil

Kirish. Sinxron tarjima zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning eng murakkab va ko'p qirrali sohalari qatoriga kiradi. Bu faoliyat tarjimondan bir vaqtning o'zida nutqni eshitish, uni semantik jihatdan anglash, xotirada saqlash va maqsad tilida adekvat tarzda qayta ifodalashni talab etadi. Bunday ko'p bosqichli kognitiv jarayon, ayniqsa, rasmiy diskurs sharoitida – xalqaro konferensiyalar, diplomatik muzokaralar, davlat rahbarlari nutqlari va BMT kabi xalqaro tashkilotlar majlislarida – alohida mas'uliyat va yuqori kasbiy mahorat talab etadi.

Rasmiy diskursda ekvivalentlik masalasi tarjimashunoslikning markaziy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ekvivalentlik deganda biz faqat so'zlarning leksik mos kelishini emas, balki matnning kommunikativ maqsadi, pragmatik ta'siri, uslubiy xususiyatlari va madaniy yukining to'liq saqlanishini tushunamiz. Ingliz, fransuz va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjimada bu masala yanada murakkablashadi, chunki ushbu tillar turli tizimiy xususiyatlarga ega: ingliz tili analitik, o'zbek tili agglyutinatив, fransuz tili esa o'ziga xos morfologik va sintaktik qurilishga ega.

Sinxron tarjimada vaqt omili hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tarjimon har bir gapni eshitib, uni bir necha soniya ichida maqsad tilida ifodalashi lozim. Bu sharoitda so'zma-so'z tarjima ko'pincha mumkin emas yoki kommunikativ jihatdan samarasiz bo'ladi. Shu sababli, tarjimon turli lingvistik transformatsiyalarga murojaat qiladi: kompressiya, modulyatsiya, generalizatsiya, kontekstual muqobil tanlash va boshqalar. Ushbu transformatsiyalar ekvivalentlikni ta'minlashning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ingliz, fransuz va o'zbek tillari rasmiy diskursi misolida sinxron tarjimada ekvivalentlik muammosini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha

o'rganadi: ekvivalentlikning nazariy asoslari; rasmiy diskursda ekvivalentlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari; lingvistik transformatsiyalarning ekvivalentlikni ta'minlashdagi roli; uch til juftligi bo'yicha qiyosiy tahlil.

Metodologiya. Tadqiqot aralash metodologiyaga asoslanadi: sifatiy diskurs tahlili va miqdoriy chastota tahlili birgalikda qo'llaniladi. Tadqiqot korpusi xalqaro konferensiyalar, BMT Bosh Assambleyasi sessiyalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xalqaro maydondagi rasmiy nutqlari va diplomatik muzokaralardan olingan transkripsiyalangan materiallardan iborat. Jami 5 soatlik sinxron tarjima yozuvlari tahlil qilindi.

Tahlil uchun quyidagi mezonlar qo'llanildi:

1. Semantik adekvatlik: asliyat matnining asosiy ma'nosi maqsad tilida to'liq saqlanganmi?
2. Pragmatik samaradorlik: tarjima tinglovchiga asliyat bilan bir xil kommunikativ ta'sir ko'rsatadimi?
3. Uslubiy muvofiqlik: tarjima rasmiy diskursning uslubiy me'yorlariga javob beradimi?

Har bir tarjima segmenti asliyat bilan qiyoslanib, transformatsiya turi aniqlanadi va yuqoridagi uch mezon bo'yicha baholanadi. Tahlil uchun ingliz-o'zbek, fransuz-o'zbek va ingliz-fransuz til juftliklari alohida ko'rib chiqildi. Tadqiqotda Gile (1995)ning modeli, Nida (1964) ning dinamik ekvivalentlik nazariyasi va Vinay hamda Darbelnet (1958) ning tarjima transformatsiyalari tasnifi nazariy asos sifatida qo'llanildi.

Adabiyotlar tahlili

Ekvivalentlik nazariyasi tarjimashunoslikda uzoq tarixga ega. Eugene Nida (1964) o'zining "Toward a Science of Translating" asarida rasmiy va dinamik ekvivalentlik tushunchalarini kiritdi. Rasmiy ekvivalentlik aslyat shakli va tuzilmasini saqlab qolishga yo'naltirilgan bo'lsa, dinamik ekvivalentlik tinglovchiga ko'rsatiladigan ta'sirning tengligini ta'minlashga qaratilgan. Vinay va Darbelnet (1958) tarjima transformatsiyalarining fundamental tasnifini ishlab chiqdi: transpozitsiya, modulyatsiya, ekvivalensiya, adaptatsiya. Daniel Gile (1995) o'zining "Kuch sarfi modeli" orqali sinxron tarjimaning kognitiv jihatlarini tushuntirdi.

O'zbek tarjimashunosligida ekvivalentlik va transformatsiya masalalari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. G'Salomov (1983) "Tarjima nazariyasi asoslari" asarida leksik-semantik o'zgarishlarni tahlil qilib, o'zbek tiliga tarjimada ekvivalentlikni ta'minlashning o'ziga xos yo'llarini ko'rsatdi. N.Komilov (2012) "Tarjimashunoslik asoslari" asarida tarjima nazariyasining asosiy tushunchalarini o'zbek tilshunosligiga tatbiq etdi. R.Rasulov (2018) ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tizimiy asimmetriyani o'rganib, bu farqlarning sinxron tarjimaga ta'sirini tahlil qildi. N.Daminov (2024) dissertatsiyasida ingliz, fransuz va o'zbek tillari rasmiy diskursidagi sinxron tarjima transformatsiyalarini qiyosiy tahlil qilgan.

Tahlil va muhokama. Rasmiy diskursda ekvivalentlik uch darajada namoyon bo'ladi: leksik, pragmatik va madaniy. Sinxron tarjimada bu uch darajani bir vaqtda ta'minlash tarjimondan yuqori mahorat talab etadi.

Kompressiya (leksik torayish). Kompressiya – aslyat matnidagi ma'lumotni qisqartirgan holda asosiy ma'noni saqlab qolish strategiyasi.

Misol (Ingliz → O'zbek): Asliyat: "We are firmly committed to strengthening our strategic partnership and enhancing multifaceted cooperation in all spheres of mutual interest."

Tarjima: *"Biz strategik hamkorlikni mustahkamlash va barcha sohalarda hamkorlikni kengaytirishga qat'iy intilamiz."*

Bu misolda "multifaceted cooperation in all spheres of mutual interest" iborasi "barcha sohalarda hamkorlik" tarzida kompressiya qilingan. Asosiy kommunikativ ma'no to'liq saqlangan.

Modulyatsiya (semantik nuqtai nazarni o'zgartirish). Modulyatsiya – asliyatdagi fikrni boshqa semantik nuqtai nazardan ifodalash.
Misol (Ingliz → O'zbek):

Asliyat: *"This decision opens new opportunities."*

Tarjima: *"Bu qaror yangi imkoniyatlarga yo'l ochadi."*

"Opens new opportunities" iborasi o'zbekchada "yo'l ochadi" tarzida modulyatsiya qilingan. O'zbek tilidagi "yo'l ochmoq" idiomasi inglizcha "open" fe'lining to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi emas, balki madaniy jihatdan mos muqobildir.

Generalizatsiya (umumlashtirish). Generalizatsiya – aniq tushunchani kengroq, umumiy tushuncha bilan almashtirish.
Misol (Ingliz → O'zbek): Asliyat: "The ministers of finance, trade, and energy attended the meeting."

Tarjima: *"Yig'ilishda bir qator vazirlar ishtirok etdi."*

Aniq vazirlik nomlari "bir qator vazirlar" iborasi bilan umumlashtirilgan. Bu sinxron tarjimada kognitiv yukni kamaytiradi.

Kontekstual muqobil tanlash va neologizm yaratish

Ba'zi rasmiy diskurs birliklarining maqsad tilida tayyor muqobili bo'lmaydi.

Misol (O'zbek → Ingliz va Fransuz):

Asliyat: "Samarqand hamjihatlik tashabbusi"

Tarjima (ingliz): "Samarkand Solidarity Initiative"

Tarjima (fransuz): "Initiative de Solidarité de Samarcande"

Bu yerda so'zma-so'z tarjima orqali yangi termin yaratilgan bo'lib, u xalqaro miqyosda yangi real birlik sifatida shakllangan.

Antonimik transformatsiya.

Misol (Ingliz → O'zbek): Asliyat: "We cannot ignore the challenges ahead."

Tarjima: "Oldimizda turgan muammolarga e'tibor qaratishimiz shart."

Inglizcha salbiy konstruktsiya o'zbekchada ijobiy konstruktsiya bilan almashtirilgan bo'lib, o'zbek tiliga xos tabiiy ifoda ta'minlangan.

Muhokama. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sinxron tarjimada ekvivalentlik – bu statik holat emas, balki dinamik jarayon. Ingliz-o'zbek juftligida sintaktik qayta qurish eng ko'p uchraydi, chunki o'zbek tilining agglyutinatativ qurilishi ingliz tilining qat'iy sintaktik tuzilmasidan tubdan farq qiladi. Fransuz-o'zbek juftligida esa idiomatik birikmalarni moslashtirishda modulyatsiya ustuvorlik kasb etadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot sinxron tarjimada ekvivalentlik masalasini ingliz, fransuz va o'zbek tillari rasmiy diskursi misolida tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldi.

Birinchidan, sinxron tarjimada ekvivalentlik so'zma-so'z mos kelish emas, balki kommunikativ maqsad, pragmatik ta'sir va madaniy yukni saqlab qolish



demakdir. Rasmiy diskursda dinamik va funksional ekvivalentlik ustuvorlik kasb etadi. Ikkinchidan, lingvistik transformatsiyalar – kompressiya, modulyatsiya, generalizatsiya, kontekstual muqobil tanlash – ekvivalentlikni ta'minlashning asosiy vositalari hisoblanadi. Uchinchidan, ingliz, fransuz va o'zbek tillari o'rtasidagi tizimiy farqlar transformatsiyalarning zarurligini belgilab beradi. To'rtinchidan, sinxron tarjimon faqat til vositachisi emas, balki ma'noni qabul qilib, qayta tuzuvchi ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Uning kasbiy mahorati lingvistik bilim, madaniy kompetensiya va tezkor strategik qaror qabul qilish qobiliyatining uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gile, D. (1995). *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training*. John Benjamins.
2. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Brill.
3. Pöchhacker, F. (2004). *Introducing Interpreting Studies*. Routledge.
4. Setton, R. (1999). *Simultaneous Interpretation: A Cognitive-Pragmatic Analysis*. John Benjamins.
5. Vinay, J. P., & Darbelnet, J. (1958). *Comparative Stylistics of French and English*. John Benjamins.
6. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
7. Salomov, G. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.
8. Komilov, N. (2012). *Tarjimashunoslik asoslari*. Toshkent: Akadernashr.
9. Rasulov, R. (2018). *Ingliz-o'zbek tarjimasida tizimiy asimmetriya*. Toshkent.